

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI

2023
2024

O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM
MAKTABLARINING 11-SINF
O'QUVCHILARI UCHUN

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR



**2023-2024-O‘QUV YILIDA UMUMTA’LIM MAKTABLARINING
11-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI
O‘TKAZISH BO‘YICHA DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANIDAN
SPETSIFIKATSIYASI.**

Davlat va huquq asoslari fanidan yakuniy attestatsiya imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida tayyorlangan. Davlat va huquq asoslari fanini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda huquqiy manbalardan foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali huquqiy bilimlarini oshirishga, huquqiy savodxonlikni yuksaltirishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quv fanini o‘rganishda o‘quvchilar huquq manbalaridan foydalana olish, o‘z huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qilish, huquqiy voqea va hodisalarga oid to‘g‘ri xulosa chiqarish, konstitutsiyaviy burch va majburiyatlarni bilishga hamda ularga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

O‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun 2023–2024-o‘quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihoni yozma shaklda o‘tkaziladi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari davlat va huquq asoslari fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning 10 – 11 - sinflar mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo‘llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo‘yicha baholash mezonlari keltirilgan. Toshiriqlar kundalik hayotda huquqiy voqea va hodisalarni idrok qilish orqali vujudga keladigan vaziyatlarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish va ma’qul qaror qabul qilish ko‘nikmalarini baholaydi.

Har bir o‘quvchi bittadan biletni tanlab oladi. Biletida o‘quvchiga 10 tadan savol beriladi. Savollarning 3 tasi bilishga, 6 tasi qo‘llashga, 1 tasi mulohazaga oid bo‘ladi.

11-sinflar uchun Yakuniy davlat attestatsiyasi materiallari tayyorlanish jarayonida davlat va huquq asoslari fanidan 10-11-sinflarda ikki yil davomida o‘tilgan mavzular hamda Konstitutsiyaviy huquq fani asos qilib olindi.

Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, ishchi guruh tomonidan qur’a tashlash yo‘li bilan 2 ta variant tuzilib, e’lon qilinadi.

O‘quvchilarning yakuniy nazorat ishlari Davlat va huquq asoslari fanidan 100 ballik tizim asosida:

0 – 29% – “qoniqarsiz”;

30–65% – “qoniqarli”;

66–85% – “yaxshi”;

86–100% – “a’lo”

baho kabi baholanadi. Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo‘yilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tuzuvchi: Axmedova Muhayyo - Toshkent shahar, Yangiheyot tumani 303-IDUM
 Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Davlat va huquq asoslari	Son i	Bilis h	Qo'llas h	Muloha za	Bir tanlovli test	Bir necha javobli yopiq test	Jadval test
O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq subyekti	1	1			1		
Konstitutsiyaviy huquq asoslari	2		2			1	1
Ma'muriy huquq asoslari	1		1				1
Fuqarolik huquqi asoslari	1		1		1		
Mehnat huquqi asoslari	2	1	1			1	1
Oila huquqi	1		1				1
Jinoyat huquqi	1			1		1	
Ekologiya huquqi	1	1			1		
Jami:	10	3	6	1	3	3	4

TOPSHIRIQLAR BO‘YICHA BAHOLASH MEZONI

№	Egallanishi kerak bo‘lgan ko‘nikma		Topshiriq turi	Topshiriq shakli	Baholash mezoni								
1	O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqda ishtirok etishi haqida tushunchaga ega bo‘lish;	B	Bir tanlovli test	A, B, C, D	A, B, C, D, variantli testlar bir tanlovli test sanaladi. Variantida bitta to‘g‘ri javob bo‘lib, to‘g‘ri javob uchun 7 ball beriladi.								
2	Fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan huquq va burchlarini bir-biridan farqlash va ularni ijtimoiy hayotda qo‘llash;	Q	Bir necha javobli yopiq test	1); 2); 3); 4).	Test savolida bir nechta javoblar keltirilgan bo‘lib, faqat to‘g‘ri javoblar tanlab olinadi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 3,6 ball beriladi. Barcha to‘g‘ri javob uchun 11 ball beriladi.								
3	O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy hududiy tuzilishi hamda davlat hokimiyati vazifalarini bir-biridan farqlash;	Q	Jadval	Moslikni aniqlash <table border="1" style="margin-left: auto; margin-right: auto;"> <tr> <td>1</td> <td>2</td> <td>3</td> <td>4</td> </tr> <tr> <td> </td> <td> </td> <td> </td> <td> </td> </tr> </table>	1	2	3	4					Jadval ko‘rinishidagi topshiriqda har bir savolga uning javobini mos keltirish kerak bo‘ladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 2,7 ball beriladi. Barcha to‘g‘ri javob uchun 11 ball beriladi.
1	2	3	4										
4	Ma‘muriy huquqbuzarliklarga qo‘llaniladigan jazolarni ijtimoiy hayotda qo‘llash;	Q	Jadval	Moslikni aniqlash <table border="1" style="margin-left: auto; margin-right: auto;"> <tr> <td>1</td> <td>2</td> <td>3</td> <td>4</td> </tr> <tr> <td> </td> <td> </td> <td> </td> <td> </td> </tr> </table>	1	2	3	4					Jadval ko‘rinishidagi topshiriqda har bir savolga uning javobini mos keltirish kerak bo‘ladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 2,7 ball beriladi. Barcha to‘g‘ri javob uchun 11 ball beriladi.
1	2	3	4										
5	Bitim va shartnomalarni bir-biridan farqlash;	Q	Bir tanlovli test	A, B, C, D	A, B, C, D variantli testlar bir tanlovli test sanaladi. Variantida bitta to‘g‘ri javob bo‘lib, to‘g‘ri								

					javob uchun 11 ball beriladi.								
6	Mehnat shartnomasini tuzish va uni bekor qilish asoslarini to'g'ri qo'llash;	Q	Jadval	<p>Moslikni aniqlash</p> <table border="1"> <tr> <td>1</td> <td>2</td> <td>3</td> <td>4</td> </tr> <tr> <td></td> <td></td> <td></td> <td></td> </tr> </table>	1	2	3	4					Jadval ko'rinishidagi topshiriqda har bir savolga uning javobini mos keltirish kerak bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun 2,7 ball beriladi. Barcha to'g'ri javob uchun 11 ball beriladi.
1	2	3	4										
7	Mehnat huquqida voyaga yetmaganlarning huquqlarini bilish;	B	Bir necha javobli yopiq test	1); 2); 3); 4).	Test savolida bir nechta javoblar keltirilgan bo'lib, faqat to'g'ri javoblar tanlab olinadi. Har bir to'g'ri javob uchun 3,5 ball beriladi. Barcha to'g'ri javob uchun 7 ball beriladi.								
8	Nikoh tuzish asoslari va uni bekor qilish sabablarini aniqlash;	Q	Jadval	<p>Moslikni aniqlash</p> <table border="1"> <tr> <td>1</td> <td>2</td> <td>3</td> <td>4</td> </tr> <tr> <td></td> <td></td> <td></td> <td></td> </tr> </table>	1	2	3	4					Jadval ko'rinishidagi topshiriqda har bir savolga uning javobini mos keltirish kerak bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun 5,5 ball beriladi. Barcha to'g'ri javob uchun 11 ball beriladi.
1	2	3	4										
9	Jinoiy huquqbuzarliklarni ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash, jazolarni to'g'ri qo'llay olish;	M	Bir necha javobli yopiq test	1); 2); 3); 4).	Test savolida bir nechta javoblar keltirilgan bo'lib, faqat to'g'ri javoblar tanlab olinadi. Har bir to'g'ri yoki noto'g'riligini topgan javob uchun 4,3 ball beriladi. Jami 13 ball beriladi.								
10	Ekologik huquqbuzarliklar va ularga qo'llaniladigan jazolarni bilish;	B	Bir tanlovli test	A, B, C, D	A, B, C, D, variantli testlar bir tanlovli test sanaladi. Variantida bitta to'g'ri javob bo'lib, to'g'ri javob uchun 7 ball beriladi.								

VARIANT-1

1. Xalqaro huquqning qaysi funksiyasida xalqaro huquqiy normalar jahon hamjamiyatini uyushtirishi, muayyan xalqaro huquqiy tartibni belgilashi, uni mustahkamlashi lozim deb ko'rsatilgan? (Bilish -7 ball)

- A) Barqarorlashtiruvchi
- B) Tartibga soluvchi
- C) Muhofaza etuvchi
- D) Huquq-tarbiyalovchi

2. Quyida berilgan huquqlardan shaxsiy huquq va erkinliklarga tegishlisini ajrating. (Qo'llash-11ball)

- 1) har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega;
- 2) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega;
- 3) mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida;
- 4) har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega;
- 5) fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli;
- 6) hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas.

--	--	--

3. Quyidagilarni o'zaro moslashtirib to'g'ri javobni toping. (Qo'llash-11ball)

1) unitar davlat;	a) bir necha subyektlar, respublikalar, shtatlar yig'indisidan tashkil topadi;
2) federativ davlat.	b) alohida ma'muriy-hududiy birliklari bir xildagi huquqlarga ega bo'ladi;
	c) ayni chog'da har bir davlat o'z suverenitetini saqlab qoladi;
	d) subyektlari o'z konstitutsiyasiga, o'z oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo'ladi;
	e) butun davlat hududida yagona konstitutsiya, yagona hukumat va yagona qonun hujjatlari amal qiladi.

1	2

4. Quyidagilarni o'zaro moslashtirib to'g'ri javobni toping. (Qo'llash-11ball)

1) ma'muriy jazo;	a) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalanadi;
	b) shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladi;

2) jinoiy jazo.	c) mahkum qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilinadi; d) yangi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi; e) javobgarlikka tortish chorasi sifatida belgilanmagan.
-----------------	--

1		2	

5. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga binoan fuqarolarning huquqlari xato berilgan javobni toping. (Qo'llash-7 ball)

- A) mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari mumkin;
- B) mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari mumkin;
- C) bankda jamg'armalarga ega bo'lishlari mumkin;
- D) qonunda taqiqlab qo'yilgan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin.

6. Quyidagilarni o'zaro moslashtirib to'g'ri javobni toping. (Qo'llash-11ball)

1) 15-16 yosh;	a) ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning yozma roziligi bilan ishga qabul qilinishi kerak;
2) 16-18 yosh.	b) ish vaqti haftasiga 36 soatdan oshmasligi kerak;
	c) aravacha va vagonetka yordamida yuk tashishlariga ruxsat etilmaydi;
	d) ish vaqti haftasiga 34 soatdan oshmasligi kerak;
	e) ish vaqti haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak.

1		2	

7. Quyidagilardan kimlar ish beruvchi bo'lishi mumkin? (Bilish-7 ball)

- 1) korxonalar, ularning alohida tarkibiy bo'linmalari o'z rahbarlari timsolida;
- 2) mulkdorning o'zi ayni bir vaqtda rahbar bo'lgan xususiy korxonalar;
- 3) O'zbekiston Respublikasining o'n olti yoshga to'lgan ayrim shaxslari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanmagan tartibda xodimlarni yollaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

--	--

8. Vaziyatga huquqiy baho bering.(Qo‘llash-11ball)

<p>Ota-ona mol-mulkini begonaga ketmasligini ko‘zlab, asrab olgan farzandlarining oila qurishi uchun FHDY organiga ariza bilan murojaat qilishdi.</p>	<p>a) nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida nikoh tuzilishiga ruxsat berilmaydi;</p> <p>b) o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida nikoh tuzilishiga ruxsat beriladi;</p> <p>c) yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni qonun yo‘li bilan taqiqlash axloqiy qoida hamda biologik nuqtayi nazarga, tibbiyot fani yutuqlari va xulosalariga asoslanadi.</p>
---	--

--	--

9. Quyidagi harakatlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)
“Tergovchi jinoyat sodir qilgan shaxsning tergov harakatlarini olib boryapti. Isbot qilishda nimalar taqiqlanmasligi haqida o‘ylab qoldi”.

- 1) shaxslarning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan yoki ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etish orqali isbot qilishi mumkin;
- 2) zo‘rluk, po‘pisa qilish, aldash va qonunga xilof boshqa yo‘llar bilan ko‘rsatuv, tushuntirish, xulosalar olishga, eksperimental harakatlarni bajarishga, hujjatlar yoki buyumlar tayyorlanishiga va berilishiga erishish orqali isbot qilishi mumkin;
- 3) tungi vaqtda, ya’ni kech soat 22:00 dan ertalab soat 6:00 gacha tergov harakatlari olib borishi mumkin.

1	2	3

10. Konstitutsiyaning qaysi bobida mulk huquqining mazmuni e‘tirof etilishi bilan bir qatorda, mulkdan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo‘jalik va ishlab chiqarish jarayonida atrof muhitga ziyon yetkazmasligi, ya‘ni ularning ekologik majburiyatlari mustahkamlanadi? (Bilish -7 ball)

- A) “Jamiyatning iqtisodiy negizlari” B) “Davlatning iqtisodiy negizlari”
C) “Xalqning iqtisodiy negizlari” D) “Jamoaning iqtisodiy negizlari”

VARIANT-2

1. Xalqaro huquq qachon vujudga kelgan? (Bilish -7 ball)

- A) Madaniy huquqlar shakllangan hamda birinchi davlatlar yuzaga kelganida paydo bo'lgan;
- B) Urug'-qabila munosabatlari parchalanib, birinchi qonunlar to'plami yuzaga kelganida paydo bo'lgan;
- C) Urug'-qabila munosabatlari parchalanib, birinchi davlatlar yuzaga kelganida paydo bo'lgan;
- D) Ilk diniy qarashlar shakllangan davrda hamda, birinchi davlatlar yuzaga kelganida paydo bo'lgan.

2. Quyida berilgan huquqlardan shaxsiy huquq va erkinliklarga tegishlisini ajrating. (Qo'llash-11ball)

- 1) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar;
- 2) hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas;
- 3) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar;
- 4) hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas;
- 5) arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart;
- 6) shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.

--	--	--

3. Quyidagilarni o'zaro moslashtirib to'g'ri javobni toping. (Qo'llash-11ball)

1) Qonun chiqaruvchi;	a) qabul qilingan qonunlarni ijro etadi;
2) Ijro etuvchi.	b) saylov asosida shakllantiriladi;
	c) Bosh Vazir boshchilik qiladi;
	d) Oliy davlat vakillik organi hisoblanadi;
	e) oldinda o'tiruvchi degan ma'noni anglatadi.

1	2

4. Ushbu vaziyatlarda fuqarolarga tayinlanishi mumkin bo‘lgan ma‘muriy jazolarni toping. (Qo‘llash-11ball)

<p>1) N. ismli shaxs qarindoshining to‘yidan mast holatda chiqib avtomashina boshqardi, natijada</p> <p>2) Fuqaro spirtli ichimlik iste‘mol qilib taqiqlangan joydan avtomashinada yo‘lni kesib o‘tib qo‘pol ravishda yo‘l harakati qoidasini buzdi, natijada</p>	<p>a) ahloq tuzatish ishlari;</p> <p>b) jarima;</p> <p>c) intizomiy qismga jo‘natish;</p> <p>d) maxsus huquqdan mahrum etish;</p> <p>e) ozodlikdan mahrum qilish.</p>
---	---

1	2

5. Xayr-ehson shartnomasi va hadya shartnomasi orasidagi farqni toping. (Qo‘llash-11ball)

- A) xayr-ehson fuqarolar, shifoxonalar, tarbiya muassasalari, fondlar muzeylar va hokazolarga, shuningdek davlatga umumfoydali maqsadlarda amalga oshiriladi;
- B) xayr-ehsonni bekor qilish mumkin emas, uni olish uchun kimningdir roziligi shart emas;
- C) merosxo‘rlik to‘g‘risidagi me‘yorlar xayr-ehsonga nisbatan qo‘llanilmaydi;
- D) barcha javoblar to‘g‘ri.

6. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11 ball)

<p>1) xodim;</p> <p>2) ish beruvchi.</p>	<p>a) mulkchilik shaklidan qat’i nazar har qanday korxonada hamda 18 yoshga to‘lgan shaxslar;</p> <p>b) mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan korxonada ishchisi;</p> <p>c) 16 yoshga to‘lgan, mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;</p> <p>d) kasaba uyushmalari va ularning korxonalaridagi saylab qo‘yiladigan idoralari;</p> <p>e) xodimlarni ishga qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs.</p>
--	--

1	2

7. Quyidagilardan neustoykaga to‘g‘ri berilgan ta‘rifni toping?(Bilish-7 ball)

- 1) qonun yoki shartnoma bilan belgilangan pul summasi bo‘lib, uni qarzdor kreditorga o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganida to‘lashga majburdir;
- 2) xodimga bajarilgan ish uchun mukofot sifatida muntazam to‘lanadigan, mehnat shartnomasida kelishilgan pul summasidir;
- 3) sud tomonidan sudlanuvchining aybi borligi yoki yo‘qligi, unga nisbatan jazo qo‘llash yoki qo‘llamaslik masalasi bo‘yicha chiqarilgan qarordir;
- 4) davlat belgilaydigan va uning bajarilishini maxsus hokimiyat idoralari (sud, ichki ishlar idoralari) yordamida ta‘minlaydigan harakatlarning umummajburiy qoidasidir.
- 5) shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda va shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lsa, unda ish beruvchi xodimdan shartlashilgan pul summasini to‘lashini talab qilishidir.

--	--

8. Vaziyatga huquqiy baho bering.(Qo‘llash-11ball)

<p>A. va S. ismli shaxslar oila qurish maqsadida FHDY organiga ariza bilan murojaat qilishdi, ammo A. tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan bosh tortdi.</p>	<p>a) nikohlanuvchi shaxslar davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar;</p> <p>b) oila qurayotgan yoshlar bir-birlarini sog‘ligi haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tish majburiy;</p> <p>c) tibbiy ko‘rikdan o‘tish ularning shaxsiy huquqi, rad etishga haqli;</p> <p>d) tibbiy ko‘rikdan o‘tish majburiy emas.</p>
---	--

--	--

9. Quyidagi harakatlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)
“Tergovchi jinoyat sodir qilgan shaxsning tergov harakatlarini olib boryapti. Gumonlanuvchiga bu jinoyatni sen qilgansan deb aybni tan olishi kerakligini aytdi”.

- 1) aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha u aybsiz deb hisoblanadi;
- 2) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyatda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va sud hukmi bilan qonuniy kuchga kirgunga qadar aybsizdir;
- 3) gumonlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas.

1	2	3

10. Konstitutsiyaning qaysi bobida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majbur ekanligi mustahkamlangan? (Bilish-7 ball)

- A) “Jamiyatning iqtisodiy negizlari”
- B) “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar”
- C) “Fuqarolarning burchlari”
- D) “Siyosiy huquqlar”

VARIANT-3

1. Quyidagilardan xalqaro huquq funksiyalari to‘g‘ri berilgan javobni toping. (Bilish -7 ball)

- A) Qo‘riqlovchi, huquq-tarbiyalovchi
- B) Tartibga soluvchi, muhofaza etuvchi
- C) Axborot tashuvchi, rivojlantiruvchi
- D) Jazolovchi, rag‘batlantiruvchi

2. Quyida berilgan huquqlardan shaxsiy huquq va erkinliklarga tegishlisini ajrating. (Qo‘llash-11ball)

- 1) har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli;
- 2) diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi;
- 3) davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi;
- 4) bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi;
- 5) uy-joyda tintuv o‘tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi;
- 6) sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

--	--	--

3. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping.(Qo‘llash-11ball)

<p>1) yuqori palata;</p> <p>2) quyi palata.</p>	<p>a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — to‘rt kishidan saylanadi;</p> <p>b) o‘z orasidan Spikerini saylaydilar;</p> <p>c) a‘zolarining bir qismi Prezident tomonidan tayinlanadi;</p> <p>d) a‘zolarining barchasi umumiy saylov asosida saylanadi;</p> <p>e) vakolat muddati 7 yil.</p>
---	---

1	2		

4. Ushbu vaziyatlarda fuqarolarga tayinlanishi mumkin bo‘lgan ma‘muriy jazolarni toping. (Qo‘llash-11ball)

<p>1) Fuqaro baliqlarni urchish davrida ovlash taqiqlanganligiga qaramasdan Amudaryodan baliq ovladi, natijada...</p> <p>.</p> <p>2) Fuqaro mast holatda avtomobil boshqardi, natijada</p>	<p>a) jarima;</p> <p>b) intizomiy qismga jo‘natish;</p> <p>c) maxsus huquqdan mahrum etish;</p> <p>d) xizmat bo‘yicha cheklash.</p>
--	---

1	2		

5. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘ying. “..... muayyan shaxslar va tashkilotlar tomonidan o‘z istagi bilan bajarilgan bepul (badalsiz) harakatdir”. (Qo‘llash-11ball)

A) xayr-ehson; B) hadya; C) sovg‘a; D) mukofot.

6. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping.(Qo‘llash-11 ball)

<p>1) 16 yoshgacha;</p> <p>2) 18 yoshdan.</p>	<p>a) pasport yoki identifikatsiyalovchi ID karta;</p> <p>b) ota-onasi yoki ularni o‘rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi;</p> <p>c) mehnat daftarchasi (birinchi marotaba ishga kirayotganlar bundan mustasno);</p>
---	--

	d) sog'ligi haqida ma'lumot; e) oilaviy sharoiti haqida ma'lumot.
--	--

1	2

7. Mehnat kodeksiga muvofiq qanday hollarda ishlash majburiy hisoblanmaydi? (Bilish-7 ball)

- 1) harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash davrida;
- 2) kundalik ish vaqtida;
- 3) soat 9:00 dan 12:00 gacha;
- 4) sud hukmi kuchga kirishi asosida.

--	--

8. Vaziyatga huquqiy baho bering. (Qo'llash-11ball)

Ota oilada moddiy ta'minotga mas'ulman deb farzandlar tarbiyasini ayoli zimmasiga yuklab qo'ydi, natijada 16 yoshli o'g'li maktabda bezorilik qildi.	a) ba'zida ota o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishi mumkin; b) ota-ona bolalar tarbiyasiga bir xilda mas'uldirlar; c) otaning harakatlari noto'g'ri; d) otaning harakatlari to'g'ri.
--	---

--	--

9. Quyidagi harakatlarni to'g'ri yoki noto'g'riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)
“Tergovchi jinoyat sodir qilgan voyaga yetmagan shaxsni tergov harakatlarini olib boryapti. Uning tergov jarayonlarida advokati ishtirok etishiga qarshilik qildi”.

- 1) voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi himoyachi ishtirokida so'roq qilinadi;
- 2) voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi himoyachi ishtirokida so'roq qilinmaydi;
- 3) so'roq oxirida himoyachi va qonuniy vakil bayonnoma bilan tanishish va u haqda o'z mulohazalarini bildirishga haqlidir.

1	2	3

10. Konstitutsiyaning qaysi bobida davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi mustahkamlangan? (Bilish-7 ball)

- A) "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar"
- B) "Jamiyatning iqtisodiy negizlari"
- C) "Fuqarolarning burchlari"
- D) "Siyosiy huquqlar"

VARIANT-4

1. O'zbekiston quyidagi xalqaro tashkilotlardan qaysi biriga birinchi bo'lib (oldinroq) a'zo bo'lgan? (Bilish- 7 ball)

- A) BMT
- B) YUNESKO
- C) ShHT
- D) MDH

2. Quyidagilardan siyosiy huquqlarga tegishlisini toping. (Qo'llash-11ball)

- 1) saylov va referendumlarda ishtirok etish huquqi;
- 2) bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi huquqi;
- 3) fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi;
- 4) kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi;
- 5) mehnatiga munosib haq olish huquqi;
- 6) vakolatli davlat organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi.

--	--	--

3. Quyidagilarni o'zaro moslashtirib to'g'ri javobni toping. (Qo'llash-11ball)

1) monarxiya; 2) respublika.	a) ma'muriy-hududiy tuzilmalarga bo'linishi; b) hokimiyatni o'rnatish, qabul qilishning alohida tartibi mavjud; c) o'z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas; d) fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok eta olishi; e) hokimiyat oliy idoralarning saylab qo'yilishi.
-------------------------------------	--

1		2	

4. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11ball)

1) ma‘muriy huquqbuzarlik;	a) fuqaro kechasi soat 2:30 larda baqir -chaqir qilib qo‘shnilarining tinchligini buzdi;
2) jinoiy huquqbuzarlik.	b) D. ismli shaxs bankdan katta miqdorda pul o‘g‘irladi;
	c) ikkita o‘rtoq janjallashib qolib, biri ikkinchisiga pichoq bilan og‘ir tan jarohati yetkazdi;
	d) A.ismli shaxs jamoat joyida uyatli so‘zlar bilan odamlarni haqorat qildi.

1		2	

5. Kassa chekiga berilgan to‘g‘ri ta‘rifni toping. (Qo‘llash-11ball)

- A) oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha iste‘molchiga tovar realizatsiya qiladigan korxonalar, tashkilot, muassasa yoki xususiy tadbirkor;
- B) tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to‘langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to‘langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma‘lumot ko‘rsatilgan hujjat;
- C) tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to‘langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to‘langan sana va kassa apparatining raqami ko‘rsatilgan hujjat;
- D) sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat.

6. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11 ball)

1) mehnat huquqi;	a) xodimga bajarilgan ish uchun mukofot sifatida muntazam to‘lanadigan, mehnat shartnomasida kelishilgan pul summasidir;
2) mehnat shartnomasi.	b) kamida ikkita nusxada tuziladi;
	c) mehnat faoliyati jarayonida vujudga keladigan odamlar orasidagi munosabatlarni tartibga soladigan huquq sohasidir;
	d) ichki tartibga rioya etish bilan

	birgalikda muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishlarni bajarish to'g'risida tomonlarning kelishuvi bilan belgilangan shartlarda xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvdir; e) huquqning mustaqil sohasi.
--	--

1	2

7. Mehnat daftarchasiga qanday yozuvlar kiritiladi? (Bilish-7 ball)

- 1) ishning sharoiti haqida;
- 2) maoshi haqida ma'lumot;
- 3) ishga qabul qilish sanasi;
- 4) ishdan bo'sh sanasi.

--	--

8. Vaziyatga huquqiy baho bering. (Qo'llash-11ball)

Nigora buvisi avtomashina meros qilib qoldirdi. To'ydan keyin er- xotin avtomashinani sotib o'rniga yangisini olishdi. Ammo ular nikohni bekor qilib, mol-mulkni bo'lish bo'yicha sudga murojaat qilishganda Nigora mashina mening shaxsiy mulkim deb uni bo'lishga qarshilik qildi.	<p>a) bu yerda avtomashina bo'linmasligi kerak;</p> <p>b) er va xotindan har birining mulki kapital ta'mirlash, qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar qo'shilgani aniqlansa, ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin;</p> <p>c) fuqaroning qarshiligi qonuniy asosga ega;</p> <p>d) fuqaroning harakatlari qonunga zid.</p>
--	---

--	--

9. Quyidagi ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)

- 1) surishtiruvchi yoki tergovchi guvohni, jabrlanuvchini, gumon qilinuvchini va ayblanuvchini surishtiruv, dastlabki tergov o‘tkaziladigan joyda yoki so‘roq qilinuvchi qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda, sud esa sud muhokamasi yuritilayotgan joyda so‘roq qiladi;
- 2) ma’lumotlar va narsalar tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etilmasdan oldin ulardan dalil sifatida foydalanish mumkin;
- 3) so‘roqning umumiy davom etish vaqti bir kunda o‘n bir soatdan oshmasligi lozim.

1	2	3

10. Konstitutsiyamizning qaysi bobida davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishi mustahkamlangan? (Bilish-7 ball)

- A) “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar”;
- B) “Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari”;
- C) “Fuqarolarning burchlari”;
- D) “Jamiyatning iqtisodiy negizlari”.

VARIANT-5

1. Xalqaro huquqning xalqaro-huquqiy tartibga solish predmeti bo‘lgan munosabatlarga ta’sirining asosiy yo‘nalishlardan qaysi biri xalqaro huquqdan foydalanish imkoniyatlarini targ‘ib qilish vazifasini bajaradi? (Bilish-7 ball)

- A) Barqarorlashtiruvchi
- B) Tartibga soluvchi
- C) Muhofaza etuvchi
- D) Axborot-tarbiyalovchi

2. Quyidagilardan siyosiy huquqlarga tegishlisini toping. (Qo‘llash-11ball)

- 1) mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish huquqi;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistonga to‘sqinliksiz qaytish huquqi;
- 3) fuqarolarning kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi;
- 4) o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinish huquqi;
- 5) fuqarolarning davlat xizmatiga kirishda tenglik huquqi;
- 6) mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqi.

--	--	--

3. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11ball)

<p>1) Konstitutsiyaviy sud;</p> <p>2) Oliy sud.</p>	<p>a) fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma‘muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi;</p> <p>b) referendumga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;</p> <p>c) quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib boradi;</p> <p>d) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;</p> <p>e) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqadi.</p>
---	--

1	2

4. Ushbu vaziyatlarda fuqarolarga tayinlanishi mumkin bo‘lgan ma‘muriy jazolarni toping. (Qo‘llash-11ball)

<p>1) Yangi yil bayramida fuqaro oila a‘zolarini markaziy hiyobondagi archaga olib borish maqsadida spirtli ichimlik iste‘mol qilishiga qaramasdan, shaxsiy avtomobilini boshqarib yo‘lga chiqdi, natijada</p> <p>2) Motosiklda harakatlanayotgan fuqaro mast holatda temir yo‘l kesib o‘tish qoidalarini qo‘pol ravishda buzdi, natijada</p>	<p>a) majburiy jamoat ishlariga jalb qilish;</p> <p>b) jarima;</p> <p>c) ozodlikdan mahrum qilish;</p> <p>d) maxsus huquqdan mahrum etish;</p> <p>e) ozodlikdan cheklash.</p>
---	---

1	2

5. Quyidagilardan almashtirish-ayirboshlash shartnomasiga misol bo‘ladiganlarini toping? (Qo‘llash-11ball)

- A) soat; B) marka; C) ishtirokchilar egalik qiladigan barcha narsalar;
D) barchasi misol bo‘ladi.

6. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11 ball)

<p>1) mehnat daftarchasi;</p> <p>2) mehnat shartnomasi.</p>	<p>a) uch yildan ko‘p bo‘lmagan muayyan muddatga (muddatli mehnat shartnomasi) tuzilishi mumkin;</p> <p>b) yo‘qolganda — nusxasi yozib beriladi (keyinroq ilgari yozuvlari tiklanadi);</p> <p>c) tashkilotda besh kundan ortiq ishlagan barcha xodimlar uchun yuritilishi shart;</p> <p>d) nomuayyan muddatga tuziladi;</p>
---	---

1	2

7. Ish haqi qanday hollarda kamida ikki hissa miqdorida to‘lanadi? (Bilish-7 ball)

- 1) qo‘shimcha ishda ishlaganda;
2) bayram kunlarida ishlaganda;
3) tug‘ilgan kunlarda ishlaganda;
4) ish vaqtidan tashqari ishlarda.

--	--

8. Vaziyatga huquqiy baho bering. (Qo‘llash-11ball)

<p>N. va G. lar o‘zaro sevishib otanasidan yashirin oila qurish maqsadida FHDY organiga ariza bilan murojaat qilishdi. Ular nikoh qayd qilinayotgan mahal guvohlar bo‘lishini istashmadi.</p>	<p>a) nikohni qayd etishda guvohlarning soni ikki kishidan kam bo‘lmasligi kerak;</p> <p>b) guvohlarsiz nikoh qayd qilinmaydi;</p> <p>c) nikoh qayd qilinayotganda guvohlar bo‘lishi shart emas;</p> <p>d) fuqaroning xohishi inobatga olinib guvohlar qatnashish yoki qatnashmasligi mumkin.</p>
---	---

--	--

9. Quyidagi ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)

- 1) odam savdosi jinoyati bo'yicha jabrlanuvchilarning ekspluatatsiya jarayonida ularga tibbiy ko'riqdan o'tishga ruxsat beriladi;
- 2) odamni o'g'irlash deganda, odamning yashirincha, oshkora yoki aldash yoxud ishonchini suiiste'mol qilish yo'li bilan shaxsiy erkinligidan mahrum qilish tushuniladi;
- 3) odamlarni ekspluatatsiya qilish – boshqa shaxslardan o'z niyatiga ko'ra foydalanish yoki jinsiy majburlashning turlari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qulchilik, erkidan mahrum qilish yoki inson a'zo-to'qimalarining transplantatsiyasi hisoblanadi.

1	2	3

10. Tabiat bilan jamiyat o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o'rganuvchi huquq sohasi berilgan javobni toping?(Bilish-7ball)

- A) Konstitutsiyaviy huquq B) Ekologiya huquqi
C) Jinoyat huquqi D) Ma'muriy huquq

VARIANT-6

1. Xalqaro munosabatlar subyektlarining davlatlar tomonidan xalqaro munosabatlar sohasida ishlab chiqilgan xalqaro hayotning dolzarb masalalari bo'yicha eng muhim va umum tan olingan xulq normalari nima deyiladi?(Bilish-7 ball)

- A) Xalqaro huquq prinsiplari;
B) Barqarorlashtiruvchi;
C) Muhofaza etuvchi;
D) Axborot-tarbiyalovchi.

2. Quyidagilardan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarga tegishlilarini toping. (Qo'llash-11ball)

- 1) davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi;
- 2) bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi;
- 3) homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi;
- 4) davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi;
- 5) sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi;
- 6) davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

--	--	--

3. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11ball)

<p>1) Bosh vazir;</p> <p>2) Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlari.</p>	<p>a) mahalliy budjetni shakllantiradi va ijro etadi;</p> <p>b) xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi;</p> <p>c) O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib boradi;</p> <p>d) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarini, Oliy Majlis palatalarining qarorlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini bajaradi;</p> <p>e) Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi.</p>
--	---

1	2

4. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11ball)

<p>1) ma‘muriy huquqbuzarlik;</p> <p>2) intizomiy huquqbuzarlik.</p>	<p>a) transport vositasi haydovchisi temiryo‘l kesib o‘tish qoidalarini buzdi;</p> <p>b) xodim ataylab ishga kech qolib keldi;</p> <p>c) o‘rmonga dam olishga kelgan fuqarolar yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzishdi;</p> <p>d) xodim xizmat majburiyatini ko‘pol ravishda buzdi.</p>
--	--

1	2

5. Xaridorning tovarni almashtirish yoki qaytarib berish talabi qanday holatlarda qondiriladi? (Qo‘llash-11ball)

- A) faqat tovar iste‘molda bo‘lmaganda;
- B) barcha xossalari va sifati saqlangan taqdirda;
- C) xarid cheki bo‘lganda;

D) yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

6. Quyidagilarni o'zaro moslashtirib to'g'ri javobni toping. (Qo'llash-11 ball)

<p>1) mehnat shartnomasini bekor qilish tartibi;</p> <p>2) mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asoslari.</p>	<p>a) mehnat shartnomasining bekor qilinishi korxonada bo'yicha buyruq bilan rasmiylashtiriladi;</p> <p>b) xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga muvofiq kelmasa;</p> <p>c) tashkilot (uning alohida bo'linmasi) o'z muassislarning (ishtirokchilarining) yoki ta'sis hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qarori bilan tugatilganligi yoxud yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan faoliyatning tugatilganligi sababli;</p> <p>d) ish beruvchi mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni mehnat daftarchani va mehnat shartnomasi bekor qilingani haqidagi buyruqning ko'chirma nusxasini berishi shart.</p>
--	--

1		2	

7. Quyidagilardan qaysilari intizomiy jazo hisoblanadi? (Bilish-7 ball)

- 1) xayfsan;
- 2) mehnat shartnomasini bekor qilish;
- 3) intizomiy qismga jo'natish;
- 4) axloq tuzatish ishlari;
- 5) ozodlikdan cheklash.

--	--

8. Vaziyatga huquqiy baho bering. (Qo'llash-11ball)

<p>X. oila qurayotganda turmush o'rtog'ining familiyasiga o'tadi, ammo 1yildan so'ng nikohni bekor qilish maqsadida sudga murojaat qilib, qizlik familiyasiga qaytarishni so'raydi, sud buni rad etadi.</p>	<p>a) nikohga kirish vaqtida o'z familiyasini o'zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli;</p> <p>b) nikohga kirish vaqtida o'z familiyasini o'zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli emas;</p> <p>c) sud tomonidan nikohdan ajratish to'g'risidagi qaror chiqarilayotganda</p>
---	--

	uning xohishiga binoan unga nikohgacha bo‘lgan familiyasi qaytarilishi mumkin; d) sud tomonidan nikohdan ajratish to‘g‘risidagi qaror chiqarilayotganda uning xohishiga binoan unga nikohgacha bo‘lgan familiyasi qaytarilishi mumkin emas.
--	--

--	--

9. Quyidagi ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)

- 1) ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish jinoyatining sodir etilish motivi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas;
- 2) saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish jinoyati obyekti – insonning saylash yoki saylanish, saylovoldi tashviqotini olib borish, referendumni o‘tkazishda ishtirok etish, nomzod shaxs ishonchli vakillarining o‘z vakolatlarini amalga oshirish huquqini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir;
- 3) mehnat qilish huquqini buzish jinoyatining subyekti ishga qabul qilish yoki ishdan bo‘shatish huquqiga ega bo‘lgan shaxs bo‘lishi mumkin.

1	2	3

10. Axloqiy qadriyatlar, milliy va xalqaro huquq normalari tomonidan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish maqsadida o‘rnatilgan qoida va me’yorlarning biron-bir davlat, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan buzilishi oqibatida ularga nisbatan qo‘llaniladigan jazo choralari deganda qanday javobgarlik nazarda tutiladi? (Bilish-7 ball)

- A) Fuqaroviy javobgarlik B) Jinoiy javobgarlik
C) Ekologik javobgarlik D) Iqtisodiy javobgarlik

VARIANT-7

1. Quyidagilardan BMTning sobiq mustamlaka kolonial yerlarning o‘z yo‘nalishini aniqlashiga yordamlashadigan kuzatuv organini toping . (Bilish-7 ball)

- A) Vasiylik Kengashi;
- B) Xalqaro Sud;
- C) Xavfsizlik Kengashi;
- D) Bosh Assambleya.

2. Quyidagilardan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarga tegishlisini toping. (Qo‘llash-11ball)

- 1) mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta‘minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi;
- 2) bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi;
- 3) yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarini, haq to‘lanadigan har yilgi mehnat ta‘tilini belgilash orqali ta‘minlanadi;
- 4) diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi;
- 5) uy-joyda tintuv o‘tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.

--	--	--

3. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping.(Qo‘llash-11ball)

1) Vazirlar Mahkamasi; 2) Xalq deputatlari Kengashlari.	a) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqadi; b) aholini, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi; c) atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta‘minlaydi; d) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlaydi;
--	---

	e) tegishli mahalliy budjetlarni ko‘rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.
--	--

1		2	

4. Ushbu vaziyatlarda fuqarolarga tayinlanishi mumkin bo‘lgan ma‘muriy jazolarni toping. (Qo‘llash-11ball)

<p>1) Fuqaro ko‘p qavatli uylarda hayvon boqish qoidalarini qo‘pol buzib uyida zaharli ilonlarni boqdi va qo‘shnilarining noroziligiga sababchi bo‘ldi, natijada</p> <p>2) Yoz mavsumida fuqaro taqiqlangan joyda cho‘milib baliq ovladi, natijada</p>	<p>a) ozodlikdan cheklash; b) jarima; c) intizomiy qismga jo‘natish; d) musodara qilish.</p>
--	---

1		2	

5. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘ying. (Qo‘llash-11ball)

“Xalqaro konvensiyalar va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq aqliy va ijodiy faoliyat natijalariga nisbatan alohida shaxsiy va mulkiy huquqlar ... deb nomlanadi”.

- A) siyosiy huquq; B) mualliflik shartnomasi;
C) shaxsiy huquq; D) intellektual mulk.

6. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11 ball)

<p>1) “Shuhrat” medali</p> <p>2) “Mehnat shuhrati” ordeni</p>	<p>a) 1993-yil 7-mayda joriy qilingan; b) yosh avlodni vatanparvarlik hamda milliy istiqlol va ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishida o‘zining halol mehnati bilan katta yutuqlarga erishgan shaxslar mukofotlanadilar;</p>
---	---

	c) xalq farovonligi oshishiga, tinchlik va barqarorlik saqlanishiga xizmat qiladigan ulkan ishlari uchun mukofotlanadilar; d) 1995-yil 30-avgustda joriy qilingan; e) 1994-yil 5-mayda joriy qilingan.
--	--

1	2

7.Mehnat uchun rag‘batlantirish qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? (Bilish-7 ball)

- 1) lavozimini oshirmaslik bilan taqdirlash;
- 2) tashakkurnoma e‘lon qilish;
- 3) qimmatbaho sovg‘a bilan taqdirlash;
- 4) davlat mukofotiga taqdim etmaslik.

--	--

8. Vaziyatga huquqiy baho bering.(Qo‘llash-11ball)

Gulnoza bilan Anvar turmush qurish uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga ariza berishdi. Gulnoza o‘zining familiyasida qolmoqchi bo‘ldi. FHDY buni qonunga zid deb topdi.	a) er va xotin familiya tanlash huquqiga ega; b) FHDY organining harakatlari qonuniy; c) FHDY organining harakatlari qonunga zid; d) er va xotin familiya tanlash huquqiga ega emas.
--	---

--	--

9.Quyidagi ma‘lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish jinoyatining obyekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayoti, sog‘lig‘i, sha‘ni va qadr-qimmatidir;
- 2) Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlarlarning obyekti har qanday davlat taraqqiyoti va hayotiy faoliyatini amalga oshirishning sharti bo‘lgan tinchlik va tinch-totuv yashash, insoniyatning yashash huquqidir;
- 3) O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyatni sodir etishdan maqsad O‘zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini o‘zgartirishdir.

1	2	3
---	---	---

--	--	--

10. Atrof tabiiy muhitga ijtimoiy xavfli zarar yetkazadigan ijtimoiy xavfli qilmishlar yig'indisiga nima deyiladi? (Bilish 7-ball)

- A) Iqtisodiy jinoyatlar;
- B) Ekologik jinoyatlar;
- C) Intizomiy huquqbuzarliklar;
- D) Jinoiy huquqbuzarliklar.

VARIANT-8

1. Xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning huquqiy maqomi o'z fuqarolari va yuridik shaxslari maqomiga tenglashtirilishi qaysi tartib turiga oid?(Bilish-7ball)

- A) do'stona tartib;
- B) milliy tartib;
- C) eng katta qulaylik tug'dirish tartibi;
- D) kichik qulaylik tug'dirish tartibi.

2. Quyidagilardan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarga tegishlisini toping. (Qo'llash-11ball)

- 1) jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi;
- 2) har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi;
- 3) davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi;
- 4) sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi;
- 5) davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

--	--	--

3. Quyidagilarni o'zaro moslashtirib to'g'ri javobni toping.(Qo'llash-11ball)

1) sud organi;	a) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqadi;
2) advokatura.	

	b) qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi; c) favqulodda ularni tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi; d) jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatadi; e) o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanadi.
--	--

1	2

4. Ushbu vaziyatlarda fuqarolarga tayinlanishi mumkin bo‘lgan ma’muriy jazolarni toping. (Qo‘llash-11ball)

1) A. va H. ko‘p qavatli uylarda yashovchi fuqarolarni haqorat qilib janjal chiqarishdi, natijada 2) Fuqaro mast holatda jamoat joyida odamlarni haqorat qilib janjal chiqardi, natijada	a) jarima; b) intizomiy qismga jo‘natish; c) xizmat bo‘yicha cheklash; d) ozodlikdan mahrum qilish; e) ma’muriy qamoq.
---	--

1	2

5. Fuqarolik sudlov jarayonida da’vo ishida qatnashayotgan taraflar nimalarga haqli? (Qo‘llash-11ball)

- A) jarayonning istalgan bosqichida sud ishini to‘xtatish;
- B) sud ishini tinch yo‘l bilan hal qilmaslik;
- C) sud ishida qatnashmaslik;
- D) ayblov hukmini e’lon qilish.

6. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11 ball)

1) xodimning huquqlari; 2) ish beruvchining huquqlari.	a) kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; b) qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda
---	--

	<p>nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish;</p> <p>c) mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni lozim darajada bajarishni xodimdan talab qilish;</p> <p>d) o'z manfaatlarini himoyalash uchun boshqa ish beruvchilar bilan birga jamoat birlashmalari tuzish va bunday birlashmalarga a'zo bo'lish;</p> <p>e) o'zining mehnat huquqlarini himoya qilmaslik, shu jumladan sud orqali himoya qilmaslik va malakali yuridik yordam olmaslik.</p>
--	--

1	2

7. Mehnat nizolari komissiyasida ishtirok etayotgan advokatning vazifalari nimalardan iborat? (Bilish-7 ball)

- 1) jarayon ishtirokchilariga savollar beradi;
- 2) nizo mohiyatiga doir ko'rsatmalar beradi;
- 3) guvohlarni so'roq qiladi;
- 4) haqiqatni aniqlash va nizoni adolatli hal etish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vositalardan foydalanadi.

--	--

8. Vaziyatga huquqiy baho bering.(Qo'llash-11ball)

<p>Bahrom va Sevaralarning oilasida farzand dunyoga keldi. Ular farzandiga bobosining ismini familiya qilib berishga qaror qilishdi. Ammo FHDY xodimi bir oilada uch xil familiya bo'lishi mumkin emas deb arizani rad etdi.</p>	<p>a) ota-onaning xohishiga ko'ra, bolaga milliy an'analarga ko'ra ota yoki ona tomonidan boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin;</p> <p>b) FHDY xodimining harakatlari qonunga zid;</p> <p>c) familiya tanlashda cheklov bor, shuning uchun FHDY xodimining e'tirozi o'rinli;</p> <p>d) oila a'zolari kamida ikkita familiyada bo'lishi kerak.</p>
--	---

--	--

9. Quyidagi harakatlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)

- 1) talon-taroj qilish – bu bironing mulkini o‘zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun, mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib, qonunga zid va haq to‘lamay undirishdir;
- 2) bosqinchilikning o‘ta ijtimoiy xavfliligi avvalo shu bilan bog‘liqki, bu jinoyat sodir etilganida jabrlanuvchilarning hayoti yoki sog‘lig‘iga ham ziyon yetkaziladi yoxud bunday ziyon yetkazilishi uchun real xavf vujudga keladi va o‘zganing mol-mulki egallab olinadi;
- 3) o‘zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish yoki o‘g‘rilik iqtisodiyot sohasidagi eng keng tarqalgan jinoyatlardan biridir.

1	2	3

10. Insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi va bu muhitni saqlab qolish borasidagi burchi qaysi qonunda mustahkamlangan? (Bilish-7 ball)

- A) “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda
- B) “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunda
- C) “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunda;
- D) Siyosiy boshpana berish Paktida.

VARIANT-9

1. Qo‘llanilayotgan huquq normalari ommaviy tartibga, ya’ni mazkur huquqiy tizimning umumiy prinsiplariga zid kelgan ba’zi hollarda xalqaro huquqni qo‘llash cheklanadi. Bu qoida nima deb ataladi?(Bilish-7 ball)

- A) ommaviy tartibning asosiy normasi;
- B) ommaviy tartib haqidagi qo‘shimcha shart;
- C) milliy tartib;
- D) ommaviy tartib haqidagi axloqiy shart.

2. Quyidagilardan fuqarolarning burchlarini ajrating. (Qo‘llash-11ball)

- 1) Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish;
- 2) atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- 3) soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lash;
- 4) aybsizlik prezumsiyasi;
- 5) vijdon erkinligi.

--	--	--

3. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping.(Qo‘llash-11ball)

<p>1) Senat raisi;</p> <p>2) Qonunchilik palatasi Spikeri.</p>	<p>a) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini imzolaydi;</p> <p>b) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog‘liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;</p> <p>c) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;</p> <p>d) Qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;</p> <p>e) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi.</p>
--	--

1	2

4. Ushbu vaziyatlarda fuqarolarga tayinlanishi mumkin bo‘lgan ma‘muriy jazolarni toping. (Qo‘llash-11ball)

<p>1) Tug‘ilgan kunini nishonlagan A. ismli shaxs spirtli ichimlik iste‘mol qilib avtomobilida qoidabuzarlik sodir qildi, natijada</p> <p>2) Chet el fuqarosi O‘zbekistonda qonunlarga bo‘ysunmasdan bir necha huquqbuzarliklar sodir qildi, natijada</p>	<p>a) ozodlikdan cheklash;</p> <p>b) jarima;</p> <p>c) intizomiy qismga jo‘natish;</p> <p>d) maxsus huquqdan mahrum etish;</p> <p>e) Respublika hududidan ma‘muriy tarzda chiqarib yuborish.</p>
---	--

1	2

5. Muallif yangi asar yaratdi, ammo qachon ijtimoiy mulkka aylanishi haqida o‘ylab qoldi? (Qo‘llash-11ball)

- A) mualliflik huquqining amal qilish muddati tugaganidan keyin;
- B) asar yaratilgandan so‘ng 30 yil o‘tib;

- C) asar yaratilgandan so‘ng 10 yil o‘tib;
 D) asar yaratilgandan so‘ng 20 yil o‘tib.

6. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11 ball)

<p>1) mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari;</p> <p>2) mehnat shartnomasida taraflarining moddiy javobgarligi.</p>	<p>a) maxsus yozma shartnoma asosida unga ishonib topshirilgan qimmatbaho buyumlar saqlanishini ta‘minlamaganligi uchun;</p> <p>b) taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida;</p> <p>c) bir gallik hujjat asosida olingan qimmatbaho buyumlarning saqlanishini ta‘minlamaganligi uchun;</p> <p>d) xodimga rag‘batlantirish uchun to‘lanadigan pul mukofoti;</p> <p>e) muddatli mehnat shartnomasining muddati tugashi asosida.</p>
---	--

1	2

7. Qaysi ma‘lumotlar mehnat daftarchasi haqida emas? (Bilish-7 ball)

- 1) 5 kundan ortiq ishlagan barcha xodimlar uchun yuritilishi shart;
- 2) nomuayyan muddatga tuziladi;
- 3) yo‘qolganda — nusxasi yozib beriladi (keyinroq ilgari yozuvlari tiklanadi);
- 4) uch yildan ko‘p bo‘lmagan muayyan muddatga tuziladi.

--	--

8. Vaziyatga huquqiy baho bering. (Qo‘llash-11ball)

<p>R. turmush o‘rtog‘ining 8 yilga ozodlikdan mahrum qilinganligi sababli bundan keyin jinoyatchi bilan yashamayman deb nikohni bekor qilish bo‘yicha sudga murojaat qildi, ammo bir tomonning yo‘qligi sababli arizasi rad etildi.</p>	<p>a) sodir etgan jinoyati uchun eri yoki xotini uch yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan taqdirda, Oila kodeksining 42-43-moddalarida belgilanganidek, ma‘muriy tartibda (FHDY organi orqali) nikohdan ajratiladi;</p> <p>b) nikoh ma‘muriy tartibda bekor qilinadi;</p> <p>c) bunday vaziyatda nikoh bekor qilinmaydi;</p>
---	--

	d) sudning harakatlari qonuniy asosga ega .
--	---

--	--

9. Quyidagi harakatlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)

- 1) pora olishning subyektiv tomoni – to‘g‘ri qasd: aybdor (pora oluvchi) moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foyda unga o‘zining xizmat mavqeyidan kelib chiqib pora beruvchi manfaatida biror-bir harakatni sodir etish yoki etmaslik uchun pora sifatida berilayotganligini anglaydi va buni xohlaydi;
- 2) har qanday moddiy qimmatliklar: pul, xorijiy valyuta, qimmatbaho buyumlar, qimmatli qog‘ozlar, oziq-ovqat yoki sanoat mahsulotlari va boshqalar pora predmeti bo‘ladi;
- 3) pora berish jinoyatining obyekti va predmeti pora olish jinoyati tarkibi belgilari bilan bir xil bo‘ladi.

1	2	3

10. Qaysi qonunda yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida ekanligi mustahkamlangan? (Bilish-7 ball)

- A) “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunda;
- B) “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”da;
- C) “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda;
- D) Xalqaro huquq bo‘yicha Billda.

VARIANT-10

1. Ingiliz-Amerika “huquqiy oilasi” yoki “umumiy huquq” qaysi davlatlarning huquq tizimida yetakchilik qiladi ?(Bilish-7 ball)

- A) AQSH, Kanada, Britaniya;
- B) Yaponiya, Hindiston, Xitoy;
- C) Rossiya, Ukraina, Estoniya;
- D) Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya.

2. Quyidagilardan fuqarolarning burchlarini toping. (Qo‘llash-11ball)

- 1) harbiy xizmatni o‘tash; 2) tarixiy obidalarni asrab avaylash;
- 3) Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarni bajarish; 4) ta’lim olish;

5) saylov va referendumlarda ishtirok etish.

--	--	--

3. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping.(Qo‘llash-11 ball)

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti; 2) Oliy Majlis.	a) xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi; b) o‘z huzurida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi; c) qo‘mitalar, agentliklar va boshqa respublika davlat organlari rahbarlarini qonunchilikka muvofiq lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi; d) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzadi; e) davlat mukofotlari va unvonlarini ta‘sis etadi.
--	--

1	2

4. Quyidagilarni o‘zaro moslashtirib to‘g‘ri javobni toping. (Qo‘llash-11 ball)

1) ma‘muriy jazo; 2) jinoiy jazo.	a) ozodlikdan mahrum qilish; b) huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish; c) chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma‘muriy tarzda chiqarib yuborish; d) ozodlikdan cheklash.
--------------------------------------	--

1	2

5. Agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa,..... hisoblanadi. Nuqtalar o‘rniga mos javobni qo‘ying.(Qo‘llash-11 ball)

- A) shartnoma buzilgan;
- B) shartnoma bekor qilingan;
- C) shartnoma tuzilgan;
- D) shartnoma to'xtatilgan.

6. Quyidagilarni o'zaro moslashtirib to'g'ri javobni toping. (Qo'llash-11 ball)

<p>1) mehnat nizolari komissiyasi raisi vazifalari;</p> <p>2) mehnat jamoasi rahbari vazifalari.</p>	<p>a) guvohlarni so'roq qiladi;</p> <p>b) da'vogar va javobgardan ishga doir qo'shimcha vaziyatlarni aniqlaydi;</p> <p>c) sudga mazkur nizo bo'yicha jamoa fikrini bayon etadi;</p> <p>d) ish mohiyatini ma'lum qilmaydi;</p> <p>e) ish vaziyatlarini oydinlashtirishga ko'mak beradi.</p>
--	--

1	2

7. Qaysi qatorda mehnat huquqining asosiy tamoyillari to'g'ri ko'rsatilgan? (Bilish-7 ball)

- 1) mehnat erkinligi tamoyili;
- 2) dam olish, mehnatni muhofaza qilish huquqini ta'minlanmaslik tamoyili;
- 3) mehnatda va bandlikda teng huquqlilikni ta'minlanmaslik tamoyili;
- 4) mehnat huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish huquqini ta'minlash tamoyili.

--	--

8 Vaziyatga huquqiy baho bering. (Qo'llash-11ball)

<p>Er-xotin to'ydan keyin nikoh shartnomasini tuzish maqsadida FHDY organiga ariza bilan murojaat qilishdi, ammo oila qurgandan keyin nikoh shartnomasini tuzish mumkin emas deb ariza rad etildi.</p>	<p>a) er-xotin nikoh shartnomasini FHDY organi orqali tuzish huquqiga ega;</p> <p>b) er-xotin nikoh shartnomasini natarial idorasi orqali tuzish huquqiga ega;</p> <p>c) nikoh shartnomasini er-xotin istalgan vaqtda tuzish huquqiga ega;</p> <p>d) nikoh shartnomasini er-xotin istalgan vaqtda tuzish huquqiga ega emas.</p>
--	---

--	--

9. Quyidagi harakatlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qiling. (Mulohaza-13 ball)

- 1) yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatning obyekti yong‘in xavfsizligi, ya‘ni odamlarning, jamoat va davlat mulkining yong‘indan muhofaza qilinganlik holati hisoblanadi;
- 2) mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish jinoyatning obyekti mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ishlayotgan shaxslarning mehnat sharoitlarini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi;
- 3) mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish jinoyati subyektiv tomondan jinoyat aybning qasd yoki ehtiyotsizlik shakllari orqali sodir etiladi.

1	2	3

10. Konstitutsiyamizning qaysi bo‘limida yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta‘minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin ekanligi mustahkamlangan? (Bilish-7 ball)

- A) “Jamiyat va shaxs”
- B) “Asosiy prinsplar”
- C) “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi”
- D) “Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi”